



DIRECTIONS OF COOPERATION BETWEEN THE STATE AND CIVIL SOCIETY INSTITUTIONS IN IMPROVING CITIZENS' POLITICAL PARTICIPATION

Ilkhomjon Erkinov

Teacher, Department of Political Science, Faculty of Social Sciences

Mirzo Ulugbek National University of Uzbekistan

Email: ilhomjonerkinov8808@gmail.com

Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: political participation, civil society institutions, public administration, cooperation, digital democracy, openness and accountability, comparative analysis, social activism, political power.

Received: 01.11.25

Accepted: 02.11.25

Published: 03.11.25

Abstract: This article analyzes the directions and mechanisms of cooperation between the state and civil society institutions in improving citizens' political participation, as well as the factors that enhance their effectiveness. The study examines the theoretical foundations of political participation, the institutional relations between the state and society, and provides a comparative analysis of Uzbekistan's experience with that of foreign countries (the United States, South Korea, the European Union, and Taiwan).

On this basis, the significance of openness, accountability, and digital democracy mechanisms in expanding political participation is highlighted. The article concludes with practical proposals and recommendations aimed at establishing effective cooperation between the state and civil society institutions, strengthening the legal and regulatory framework, and ensuring the direct involvement of citizens in political decision-making.

FUQAROLAR SIYOSIY ISHTIROKINI TAKOMILLASHTIRISHDA DAVLAT VA FUQAROLIK JAMIYATI INSTITUTLARINING HAMKORLIK YO'NALISHLARI

Ilxomjon Erkinov

Ijtimoiy fanlar fakulteti Siyosatshunoslik kafedrası o'qituvchisi

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy Universiteti

Email: ilhomjonerkinov8808@gmail.com

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: Siyosiy ishtirok, siyosiy ishtirok, fuqarolik jamiyati institutlari, davlat boshqaruvi, hamkorlik, raqamli demokratiya, ochiqlik va hisobdorlik, qiyosiy tahlil. ijtimoiy faollik, siyosiy hokimiyat.

Annotatsiya: Mazkur maqolada fuqarolar siyosiy ishtirokini takomillashtirishda davlat va fuqarolik jamiyati institutlarining hamkorlik yo'nalishlari, mexanizmlari va ularning samaradorligini oshirish omillari tahlil etiladi. Tadqiqotda siyosiy ishtirokning nazariy asoslari, davlat va jamiyat o'rtasidagi institutsional aloqalar, shuningdek, O'zbekiston tajribasi xorijiy davlatlar (AQSh, Janubiy Koreya, Yevropa Ittifoqi mamlakatlari va Taiwan) amaliyoti bilan qiyosiy tahlil qilinadi. Shu asosda siyosiy ishtirokni kengaytirishda ochiqlik, hisobdorlik va raqamli demokratiya mexanizmlarining ahamiyati yoritiladi. Maqola yakunida davlat va fuqarolik jamiyati institutlari o'rtasida samarali hamkorlikni yo'lga qo'yish, huquqiy-me'yoriy bazani mustahkamlash hamda fuqarolarning siyosiy qarorlar qabul qilishdagi bevosita ishtirokini ta'minlashga qaratilgan amaliy taklif va tavsiyalar berilgan.

**НАПРАВЛЕНИЯ СОТРУДНИЧЕСТВА ГОСУДАРСТВА И ИНСТИТУТОВ
ГРАЖДАНСКОГО ОБЩЕСТВА В СОВЕРШЕНСТВОВАНИИ ПОЛИТИЧЕСКОГО
УЧАСТИЯ ГРАЖДАН**

Илхомжон Эркинов

Преподаватель кафедры политологии, факультет социальных наук

Национальный университет Узбекистана имени Мирзо Улугбека

Электронная почта: ilhomjonerkinov8808@gmail.com

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: политическое участие, институты гражданского общества, государственное управление, сотрудничество, цифровая демократия, открытость и подотчетность, сравнительный анализ, социальная активность, политическая власть.

Аннотация: В данной статье анализируются направления и механизмы сотрудничества между государством и институтами гражданского общества в совершенствовании политического участия граждан, а также факторы, повышающие их эффективность. В исследовании рассматриваются теоретические основы политического участия, институциональные отношения между государством и обществом, а также проводится сравнительный анализ опыта Узбекистана и зарубежных стран (США,

Южной Кореи, государств Европейского союза и Тайваня).

На этой основе освещается значение открытости, подотчетности и механизмов цифровой демократии в расширении политического участия. В заключение статьи предлагаются практические меры и рекомендации, направленные на налаживание эффективного сотрудничества между государством и институтами гражданского общества, укрепление правовой и нормативной базы, а также обеспечение непосредственного участия граждан в процессе принятия политических решений.

Kirish. Fuqarolarning siyosiy ishtirokini takomillashtirish davlat va fuqarolik jamiyati institutlari o'rtasidagi samarali hamkorlikni talab etadi. Ushbu ikki subyekt o'rtasidagi institutsional hamkorlik demokratik boshqaruv tamoyillarini mustahkamlash, fuqarolarning huquq va erkinliklarini ta'minlash hamda ijtimoiy adolatning qaror topishida muhim o'rin tutadi. Siyosiy tizimning inklyuzivligi va fuqarolarning davlat boshqaruvidagi ishtirokini ta'minlash demokratik jamiyat barqarorligining asosiy omillaridan biri hisoblanadi.

Fuqarolarni siyosiy jarayonlarga keng jalb etish uchun ochiq va shaffof muloqot mexanizmlarini shakllantirish zarur. Davlat idoralari o'z faoliyatining ochiqligini ta'minlab, fuqarolarni qaror qabul qilish jarayonlariga integratsiya etishi lozim. Bunday muloqot jamiyatdagi ishonch darajasini oshirish, fuqarolarning siyosiy jarayonlardagi faolligini rag'batlantirish hamda ularning davlat siyosatiga bevosita ta'sir ko'rsatish imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qiladi. Fuqarolarning taklif va tashabbuslari davlat boshqaruvi jarayoniga kiritilishi, ularning fikr-mulohazalari hisobga olinishi siyosiy tizim barqarorligini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Siyosiy ishtirokni tartibga soluvchi normativ-huquqiy baza ham bu jarayonda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Davlat tomonidan qabul qilinadigan huquqiy hujjatlar fuqarolarning siyosiy faolligini kengaytirishi yoki cheklashi mumkin. Shu bois, fuqarolik jamiyati institutlari davlat organlari bilan hamkorlikda qonunchilik tashabbuslarini ilgari surish, demokratik boshqaruv tamoyillariga mos keluvchi huquqiy-meyoriy bazani shakllantirish jarayonida faol ishtirok etishi lozim. Siyosiy jarayonlarga fuqarolarning keng jalb etilishini ta'minlaydigan huquqiy mexanizmlar ularning huquqlarini himoya qilish, davlat boshqaruv tizimiga ta'sir ko'rsatish imkoniyatlarini oshirish bilan birga, jamiyatdagi siyosiy barqarorlikni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Bugungi kunda, zamonaviy texnologiyalar, xususan, ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy axborot vositalari fuqarolarning siyosiy faolligini oshirishda samarali vosita sifatida namoyon bo'lmoqda. Fuqarolik jamiyati tashkilotlari ushbu platformalar orqali o'z tashabbus va fikrlarini keng jamoatchilikka yetkazish, dolzarb ijtimoiy-siyosiy masalalar bo'yicha jamoatchilik fikrini shakllantirishi natijasida, fuqarolar ijtimoiy, siyosiy jaayonlarda faol ishtirok etmoqda. Shuningdek, ommaviy axborot vositalari jamiyatda siyosiy xabardorlik darajasini oshirish, dolzarb masalalar bo'yicha fuqarolarning ongli qaror qabul qilishiga ko'maklashish hamda fuqarolik institutlarining ijtimoiy-siyosiy jarayonlarga ta'sirchanligini kuchaytirishda muhim vosita hisoblanadi.

O'zbekistonning yangi taraqqiyot bosqichida barqaror fuqarolik jamiyatini barpo etish, davlatning ijtimoiy-iqtisoiy, siyosiy-huquqiy asoslarini shakllantirishda "Inson qadri uchun" tamoyili asosida farovon hayot, inson huquqlari va manfaatlarini ta'minlashga qaratilgan ustuvor yo'nalishlar belgilandi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tashabbusi bilan ishlab chiqilgan "O'zbekiston – 2030" strategiyasida davlat xizmatlarini chuqur isloh qilish, uni inson manfaatlari sari yo'naltirish orqali ijtimoiy davlatchilik munosabatlariga xos amaliy chora-tadbirlarni ishlab chiqish muhim vazifaga aylandi. Bunda davlat, jamiyat, fuqarolar o'rtasidagi ko'p qirrali bog'liqlik, o'zaro samarali muloqotning yangi modelini yaratish O'zbekistonning bosh ustuvor islohotining muhim yo'nalishidan biridir. Shu bois mazkur vazifalarning amaliy ijrosi, ijtimoiy hayotda o'zining natijadorlikka qaratilgan aksini topishi, inson manfaatlari ustuvorligini ta'minlash davlat va jamiyatning dolzarb maqsadi sifatida belgilanmoqda.

Aholining turli toifalarini siyosiy jarayonlardagi siyosiy ishtirokining o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish bizga zamonaviy jamiyatning ijtimoiy-siyosiy dinamikasini o'rganish hamda siyosiy ishtirok etish shakllarining jarayonga ta'sirini kuzatish imkonini beradi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili (Literature review). XX asr boshidan shakllangan xulq-atvor yondashuvida B. Berelson, P. Lazarsfeld, H. Gaudet, H. McClosky kabi olimlar shaxslarning siyosiy xulqini tashqi omillar ta'siri bilan izohladilar. Masalan, Berelson va hamkorlarining "The People's Choice" tadqiqotida OAVning siyosiy qarorlarga bevosita emas, balki ijtimoiy guruhlar orqali ta'sir ko'rsatishi nazariy jihatdan asoslab berilgan[1]. McClosky esa siyosiy xatti-harakatni shaxsiyat xususiyatlari bilan bog'lab tushuntiradi[2].

Ijtimoiy-psixologik yondashuv esa Philip Converse, Angus Campbell, Warren Miller va Michigan universiteti olimlari tomonidan shakllantirilgan. Ular saylovchilarning siyosiy qarorlarini psixologik predispozitsiya, partiyaviy identifikatsiya hamda motivatsiyalar orqali izohlashgan. Ularning "The American Voter" asari mazkur yo'nalishdagi asosiy empirik manba hisoblanadi[3].

Tizimli-funksional yondashuvda esa fuqarolarning siyosiy faolligi siyosiy tizim va institutlarning ajralmas qismi sifatida qaraladi. G. Almond, S. Verba, R. Dahl, M. Kaase va A. Marsh ta'kidlashicha, ishtirok darajasi tizimning legitimligi va demokratik barqarorligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi[4].

Shuningdek, zamonaviy tadqiqotlarda fuqarolarning ommaviy boshqaruvdagi ishtiroki T. Nabatchi, J. Creighton, M. Leighninger, M. Bryson, R. Dacomb asarlari[5] da keng yoritilgan. Ularning nazariyalari siyosiy ishtirok shakllari va tamoyillarining rivojlanish istiqbollari tushunishda muhim manba bo'ldi. Shu bilan birga, xalqaro standartlar va indekslar, "Good Governance" nazariyalari hamda Sh. Arnshteynning "ishtirok narvoni" konsepsiyasi metodologik asos sifatida qo'llaniladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqotda fuqarolarning siyosiy ishtirokini takomillashtirishda davlat va fuqarolik jamiyati institutlari hamkorligining asosiy yo'nalishlarini aniqlash maqsad qilib olindi. Shu nuqtai nazardan, metodologik asos sifatida siyosiy fanlarda qo'llaniladigan tizimli-funksional, qiyosiy va empirik yondashuvlar uyg'unlashtirildi.

Birinchidan, tizimli-funksional yondashuv asosida davlat va fuqarolik jamiyati institutlari o'rtasidagi hamkorlik siyosiy tizimning tarkibiy qismi sifatida tahlil qilindi. Bu orqali siyosiy ishtirok darajasining tizim legitimligi va barqarorligiga ko'rsatadigan ta'siri aniqlash maqsad qilindi.

Ikkinchidan, qiyosiy tahlil usuli yordamida O'zbekiston tajribasi xorijiy davlatlar (AQSh, Janubiy Koreya, Yevropa Ittifoqi mamlakatlari) amaliyoti bilan solishtirildi. Bu usul fuqarolarning siyosiy ishtirokini kengaytirish va davlat bilan fuqarolik jamiyati hamkorligini rivojlantirishda samarali bo'lgan mexanizmlarni aniqlash imkonini berdi.

Uchinchidan, empirik yondashuv asosida ijtimoiy so'rovlar, ekspert suhbatlari va kontent-tahlil metodlari qo'llanildi. Jumladan, ommaviy axborot vositalarida, ijtimoiy tarmoqlarda va davlat idoralarining ochiq ma'lumotlar bazalarida fuqarolarning siyosiy jarayonlardagi faolligi, taklif va tashabbuslari o'rganildi. Shuningdek, turli yosh va ijtimoiy guruhlar vakillarining siyosiy jarayonlardagi ishtiroki qiyosiy tahlil qilindi.

Tadqiqotning normativ-huquqiy bazasi sifatida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, "Nodavlat notijorat tashkilotlari to'g'risida"gi Qonun, "Ommaviy axborot vositalari to'g'risida"gi Qonun, shuningdek, Prezident farmonlari va hukumat qarorlari tahlil qilindi.

Metodologik jihatdan, siyosiy ishtirok jarayonini o'rganishda Arnshteynning "ishtirok narvoni" modeli, shuningdek, xalqaro "Good Governance" tamoyillari qo'llanildi. Bu yondashuvlar fuqarolarning siyosiy jarayonlardagi ishtirok darajasini baholash va davlat hamda fuqarolik jamiyati institutlari o'rtasidagi hamkorlikning samaradorlik mezonlarini aniqlashga yordam berdi.

Tadqiqotning chegaralari sifatida esa O'zbekistonning so'nggi yillardagi siyosiy-huquqiy islohotlari va fuqarolik jamiyati institutlari faoliyati asosiy tahlil ob'ekti sifatida belgilandi. Shu bilan birga, tadqiqotning ilmiy yangiligi – davlat va fuqarolik jamiyati hamkorligini siyosiy ishtirokni kengaytirish omili sifatida qiyosiy va empirik asosda o'rganishda namoyon bo'ladi.

Tahlil va natijalar. Tadqiqot jarayonida fuqarolarning siyosiy ishtirokini takomillashtirishda davlat va fuqarolik jamiyati institutlari o'rtasidagi hamkorlik mexanizmlarining samaradorligi tahlil qilindi. Olingan natijalar quyidagi asosiy yo'nalishlarda umumlashtiriladi.

Birinchidan, O'zbekistonda so'nggi yillarda joriy etilgan raqamli platformalar fuqarolarning siyosiy jarayonlardagi ishtirokini sezilarli darajada kengaytirdi. Jumladan, "Mening fikrim" portali va "Elektron hukumat" tizimi orqali fuqarolar o'z taklif va tashabbuslarini davlat boshqaruvi jarayonlariga taqdim etish imkoniyatiga ega bo'ldilar. Mazkur jarayon siyosiy qarorlarning fuqarolar ehtiyojlariga moslashtirilishida muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda[6].

Ikkinchidan, huquqiy-institutsional mexanizmlar fuqarolik jamiyati institutlari faoliyatini qo'llab-quvvatlashda muhim rol o'ynaydi. "Jamoatchilik nazorati to'g'risida"gi Qonun va boshqa me'yoriy hujjatlar fuqarolarning davlat idoralari faoliyati ustidan nazoratini ta'minlashga xizmat qilmoqda. Shu asosda, so'nggi yillarda nodavlat notijorat tashkilotlar sonining ortishi, ular tomonidan ishlab chiqilayotgan tashabbuslarning davlat siyosatiga integratsiya qilinishi kuzatilmoqda[7].

Uchinchidan, fuqarolarning siyosiy tashabbuslari davlat siyosatini boyituvchi muhim resurs sifatida qaralmoqda. Masalan, "O'zbekiston – 2030" strategiyasi bo'yicha o'tkazilgan keng jamoatchilik muhokamalarida fuqarolar tomonidan yuzlab takliflar bildirilib, ular siyosiy hujjatlarning yakuniy variantiga inkorporatsiya qilindi[8]. Bu jarayon siyosiy qarorlarning demokratik legitimligini oshirganini ko'rsatadi.

To'rtinchidan, xalqaro tajriba tahlili xalqaro tajriba tahlili shuni ko'rsatadiki, davlat va fuqarolik jamiyati institutlari o'rtasidagi samarali hamkorlik siyosiy tizimning barqarorligi, ishonchliligi va legitimlik darajasini oshiradi. Masalan, Taiwandagi raqamli demokratiya amaliyoti natijasida hukumatga nisbatan jamoatchilik ishonchi 70 foizdan ortiq darajaga ko'tarilgan bo'lsa[9], AQShda "grassroots democracy" va mustaqil fuqarolik tashabbuslari fuqarolarning siyosiy faolligini kuchaytirgan[10]. Janubiy Koreyada esa "open government data" va elektron hukumat platformalari orqali fuqarolarning davlat qarorlariga bevosita ta'sir qilish imkoniyatlari kengaygan[11]. Yevropa Ittifoqida subsidiarlik tamoyiliga asoslangan boshqaruv modeli natijasida mahalliy darajada fuqarolik jamiyati institutlarining ishtiroki kuchayib, qarorlar qabul qilish jarayonining shaffofligi oshirilgan[12]. Ushbu tajribalar shuni ko'rsatadiki, raqamli

vositalar, huquqiy mexanizmlar va ijtimoiy institutlar uyg'unligida fuqarolarni qaror qabul qilishga keng jalb etish siyosiy tizim legitimligini mustahkamlovchi samarali model hisoblanadi.

Beshinchidan, tahlillar shuni ko'rsatadiki, fuqarolarning siyosiy ishtiroki nafaqat davlat qarorlarini qabul qilish jarayonida, balki ularning ijrosini monitoring qilish va baholashda ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bu borada xalqaro ilmiy adabiyotlarda keng yoritilgan Sh. Arnshteynning "ishtirok narvoni" konsepsiyasi fuqarolik ishtirokini baholashda metodologik asos bo'lib xizmat qiladi[13].

Umuman olganda, tadqiqot natijalari fuqarolarning siyosiy ishtiroki davlat va fuqarolik jamiyati institutlari hamkorligisiz samarali kechishi mumkin emasligini ko'rsatadi. Ayniqsa, ochiqlik, shaffoflik va hisobdorlik tamoyillari asosida tashkil etilgan hamkorlik siyosiy tizim barqarorligini ta'minlashning hal qiluvchi omili sifatida namoyon bo'lmoqda.

Xulosa va takliflar. Yuqoridagi tahlillar shuni ko'rsatadiki, fuqarolarning siyosiy ishtirokini takomillashtirish bevosita davlat va fuqarolik jamiyati institutlari o'rtasidagi samarali hamkorlikka tayanadi. Raqamli platformalar, huquqiy asoslarning mustahkamlanishi, fuqarolarning tashabbuslari va jamoatchilik nazorati mexanizmlarining kengayishi siyosiy tizimning inklyuzivligi va legitimligini oshiruvchi asosiy omillar sifatida namoyon bo'ldi. Xalqaro tajriba ham shuni ko'rsatadiki, davlat boshqaruviga keng jamoatchilikni jalb qilish demokratik barqarorlikni ta'minlashning muhim kafolatidir.

Asosiy xulosalar:

1. Fuqarolarning siyosiy ishtiroki demokratik legitimlikni ta'minlashda hal qiluvchi omil bo'lib, davlat va fuqarolik jamiyati institutlari o'rtasidagi hamkorlik orqali samarali rivojlanadi.
2. O'zbekistonda siyosiy ishtirok mexanizmlarini kengaytirishga xizmat qiluvchi normativ-huquqiy baza shakllangan bo'lib, u fuqarolik institutlari faolligini qo'llab-quvvatlamogda.
3. Raqamli vositalar (portal, elektron hukumat, ijtimoiy tarmoqlar) fuqarolarning qaror qabul qilishdagi ishtirokini sezilarli darajada kuchaytirib, ularning davlat siyosatiga ta'sirchanligini oshirmogda.
4. Xalqaro tajriba, xususan, Taiwandagi raqamli demokratiya amaliyoti, fuqarolar ishtirokini kengaytirish siyosiy tizimga ishonchni mustahkamlashini tasdiqlaydi.

Takliflar:

1. Huquqiy asoslarni takomillashtirish – fuqarolarning siyosiy ishtiroki va jamoatchilik nazoratini yanada samarali amalga oshirish uchun normativ-huquqiy mexanizmlarni zamonaviy xalqaro standartlarga moslashtirish zarur.

2. Raqamli demokratiya vositalarini kengaytirish – fuqarolarning qaror qabul qilishdagi bevosita ishtirokini ta'minlovchi ochiq onlayn platformalarni rivojlantirish va ularning samaradorligini oshirish lozim.

3. Fuqarolik jamiyati institutlarini qo'llab-quvvatlash – nodavlat notijorat tashkilotlari, mahalla institutlari va OAVning siyosiy jarayonlardagi rolini kuchaytirish, ularni davlat bilan teng sherik sifatida e'tirof etish maqsadga muvofiq.

4. Jamoatchilik nazorati mexanizmlarini samarali qo'llash – davlat organlari faoliyatida ochiqlik va hisobdorlikni ta'minlash uchun jamoatchilik eshituvlari, monitoring va ijtimoiy baholash tizimlarini keng joriy etish lozim.

5. Hududiy va ijtimoiy guruhlar kesimida ishtirokni kengaytirish – yoshlar, ayollar, ijtimoiy jihatdan kamroq faollik ko'rsatadigan qatlamlarning siyosiy ishtirokini rag'batlantirishga qaratilgan maxsus dasturlarni ishlab chiqish talab etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Bernard R. Berelson, Paul F. Lazarsfeld, and Hazel Gaudet, *The People's Choice: How the Voter Makes Up His Mind in a Presidential Campaign* (New York: Columbia University Press, 1944).

2. Herbert McClosky, "Conservatism and Personality," *American Political Science Review* 52, no. 1 (1958): 27–45.

3. Campbell A., Converse P., Miller W., Stokes D. *The American Voter*. N.Y.1960.

4. Алмонд Г.А. Верба С. Гражданская культура и стабильность демократии // Полис. - 1992. - №4; Dahl, Robert A. *Polyarchy: Participation and Opposition*. New Haven: Yale University Press, 1971; Kaase. M. *Political Action and Beyond*. XXth World Congress of IPSA, Fukuoka, Japan, 2006; Marsh, Alan. "Political Participation." In *The Oxford Handbook of Political Behavior*, edited by Russell J. Dalton and Hans-Dieter Klingemann, 328–345. Oxford: Oxford University Press, 2007.

5. T Nabatchi, M Leighninger "Public Participation for 21st Century Democracy" Jossey-Bass - 2015; Kathryn S. Quick, John M. Bryson "Public Participation" *JOBNAME: Ansell Torfing* PAGE: 3 SESS: 2 OUTPUT: Fri Mar 18 15:13:54 2016.; Robert D. Putnam *Bowling alone: The collapse and revival of American community*. Touchstone Books/Simon & Schuster. 2000.

6. "Mening fikrim" portali faoliyati haqida. InLibrary.uz. 2024. <https://inlibrary.uz/index.php/zdit/article/view/52302>

7. Yangi O'zbekiston: Fuqarolik jamiyati institutlarini izchil rivojlantirish yo'lida. Yuz.uz, 2023. <https://yuz.uz/uz/news/yangi-ozbekiston--fuqarolik-jamiyati-institutlarini-izchil-rivojlantirish-yolida>

8. O‘zbekiston Respublikasi Milliy Inson huquqlari markazi. “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi muhokamalari haqida. Nhrc.uz, 2023. / nhrc.uz/oz/news/m14932
9. Audrey Tang. “How Taiwan’s Digital Democracy Boosted Trust in Politics.” *The Guardian*, July 22, 2024. // <https://www.theguardian.com/commentisfree/article/2024/jul/22/taiwan-bucked-global-trend-trust-politics-hired-protesters>
10. Skocpol, Theda, and Caroline Tervo. *The Civic Engagement in American Democracy*. Washington, DC: Brookings Institution Press, 2018.
11. Kim, Pan Suk. “South Korea’s E-Government Development: From the Late 1990s to the Present.” *Asian Journal of Political Science* 27, no. 1 (2019): 25–46. <https://doi.org/10.1080/02185377.2019.1572135>.
12. Beetham, David, and Christopher Lord. *Legitimacy and the European Union*. London: Routledge, 2014.
13. Arnstein, Sherry R. “A Ladder of Citizen Participation.” *Journal of the American Planning Association* 35, no. 4 (1969): 216–224. <https://doi.org/10.1080/01944366908977225>